

JARAYON



JARAYON

Tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida mahallalarda bo'lib, mahallalar yettiligi bilan bajarilgan ishlarni tahlil qilib, yangi yil uchun qilinadigan ishlar rejalari bilan tanishmoqda. Hushyor mahallasida bo'lgan tuman hokimi hududda aholini bandligini ta'minlashga qaratilgan ishlarni ko'zdan kechirdi va Hushyorlik tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning muammolarini o'rgandi.

Mahalla yettiligi faoliyati va hududdan tuman Kengashiga saylangan deputatlar olib borayotgan ishlarni o'rganish jarayonida endilikda samarali faoliyat olib borish uchun eski qolip va sarqitlardan butunlay voz kechish zarurligini ta'kidladi. Eng asosiy vazifa aholi murojaatlarini o'rganish va muammolarga manzilli e'tibor qaratib, ularniing yechimini tizimli ravishda amalga tatbiq etish shartligi ham ta'kidlandi.

O'rganish jarayonida tuman hokimi mahalladagi kam ta'minlangan oilalar holidan xabar oldi. Ushbu fuqarolarga oziq-ovqat mahsulotlari va farzandlariga sarpolar yetkazib berildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati











[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram_murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-24 18:42:54